

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLUZIV TA'LIMNI  
BOSHQARISH MODEL: DEFEKTOLOG, PSIXOLOG VA TARBIYACHI  
HAMKORLIGI**

**Axmedova Dildora Qudratillayevna**

**Buxoro viloyati Shofirkon tumani 26-son  
davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti  
direktori**

**Axmedova Nargiza Qudratillayevna**

**Navoiy viloyati Navoiy shahri 28-son davlat  
maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor  
o'rinbosari**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inkluziv ta'limni samarali tashkil etish va boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, defektolog, psixolog va tarbiyachidan iborat ko'p tarmoqli (multidisiplinar) jamoa hamkorligiga asoslangan boshqaruv modeli taklif etiladi. Taklif etilayotgan boshqaruv modeli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inkluziv ta'lim sifatini oshirish, bolalarning psixofiziologik imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga xizmat qiladi.

This article analyzes the issues of organizing and managing inclusive education in preschool educational institutions. Specifically, a management model based on the cooperation of a multidisciplinary team consisting of a defectologist, psychologist, and educator is proposed. The proposed management model aims to improve the quality of inclusive education in preschool institutions, fully realize children's psychophysiological potential, and successfully integrate them into society.

В данной статье анализируются вопросы организации и управления инклюзивным образованием в дошкольных образовательных учреждениях. В частности, предлагается модель управления, основанная на сотрудничестве многопрофильной команды, включающей дефектолога, психолога и воспитателя. Предлагаемая модель управления направлена на повышение качества инклюзивного образования в дошкольных учреждениях, полное раскрытие психофизиологических возможностей детей и успешную их интеграцию в общество.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, inkluziv ta'lim, boshqaruv modeli, defektolog, psixolog, tarbiyachi, multidisiplinar jamoa, maxsus ehtiyojli bolalar, individual rivojlanish rejasi, hamkorlik.

Preschool education, inclusive education, management model, defectologist, psychologist, educator, multidisciplinary team, children with special needs, individual development plan, cooperation.

Дошкольное образование, инклюзивное образование, модель управления, дефектолог, психолог, воспитатель, многопрофильная команда, дети с особыми потребностями, индивидуальный план развития, сотрудничество.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa, inkluziv ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inkluziv ta'lim nazariyasiga ko'ra, har bir bola o'zining jismoniy, aqliy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlaridan qat'i nazar, teng huquqli ta'lim subyekti hisoblanadi. Demak,

maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha bolalar uchun ochiq, moslashuvchan, qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi lozim.

Inkluziv ta'limni samarali yo'lga qo'yishda eng muhim masalalardan biri – bu boshqaruv modelini to'g'ri tanlash va uni hayotga joriy etishdir. An'anaviy boshqaruv tizimida tarbiyachi ko'proq o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun, psixolog alohida psixokorreksion ishlar uchun, defektolog esa faqat maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash uchun mas'ul sifatida ko'rilgan. Bunday yondashuvda mutaxassislar faoliyati ko'pincha bir-biridan ajralgan, uzviy tizimga birlashmagan bo'ladi.

Bugungi kunda esa inkluziv ta'lim talablari defektolog, psixolog va tarbiyachining yagona jamoa sifatida hamkorligini, ularning ishini boshqarish uchun aniq model va mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur maqolada aynan shunday ko'p tarmoqli hamkorlikka asoslangan boshqaruv modeli ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab beriladi.

### **1. Inkluziv ta'lim va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar**

Inkluziv ta'lim — bu maxsus ehtiyojli bolalarni alohida ta'lim dargohlarida ajratib qo'yish emas, balki ularni sog'lom tengdoshlar bilan birgalikda, umumiy ta'lim dargohlarida o'qitish va tarbiyalashni nazarda tutuvchi yondashuvdir. Maktabgacha yosh davri bolaning psixik, nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi eng jadal kechadigan bosqich bo'lgani uchun aynan shu davrda inkluziv ta'limni sifatli tashkil etish kelgusida bola taqdiriga, uning maktabga tayyorgarligiga, ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Inkluziv ta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotidan quyidagi vazifalarni talab qiladi: bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini erta aniqlash va baholash; o'quv-tarbiyaviy dasturlarni moslashtirish va differensiallashtirish; psixologik-pedagogik va defektologik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish; ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish; jamoa (tarbiyachi, defektolog, psixolog, ma'muriyat) o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash.

Ushbu vazifalarni bajarish alohida bir mutaxassis zimmasiga yuklanishi mumkin emas. Shu bois defektolog, psixolog va tarbiyachidan iborat multidisiplinar jamoa faoliyatini rejalashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi boshqaruv modeli zarur bo'ladi.

### **2. Inkluziv ta'limni boshqarishda defektolog, psixolog va tarbiyachi rollari**

**Defektologning roli.** Defektolog – maxsus ehtiyojli bolalarning psixofiziologik va nutqiy rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlash, ularni tahlil qilish va ularning bartaraf etilishi yoki yumshatilishi bo'yicha korreksion dasturlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir. Inkluziv ta'lim sharoitida defektolog:

bolalar rivojlanishini diagnostika qilish; maxsus ehtiyojli bolalar uchun individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish; tarbiyachi va psixolog bilan birgalikda mashg'ulotlar mazmunini moslashtirish; ota-onalarga defektologik maslahat berish;

ta'lim dargohida inkluziv guruhlar ishini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi.

**Psixologning roli.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha bolalarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Inkluziv ta'limda psixolog: bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini kompleks diagnostika qilish; defektolog va tarbiyachi bilan birga individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish; bolalar o'rtasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, diskriminatsiya va stigma holatlarining oldini olish; tarbiyachilar va ota-onalar bilan psixologik ma'rifiy ishlar olib borish; zarurat tug'ilganda psixokorreksion mashg'ulotlar o'tkazish kabi funksiyalarni bajaradi.

**Tarbiyachining roli.** Tarbiyachi inkluziv ta'lim muhitida bosh figurantlardan biridir. Chunki u bolalar bilan bevosita ko'p vaqtni birga o'tkazadi, mashg'ulotlarni tashkil etadi, o'yin faoliyatini boshqaradi va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Inkluziv guruhdagi tarbiyachi: defektolog va psixolog tavsiyalarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar va o'yinlarni rejalashtiradi; har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni ta'minlaydi; guruhdagi bolalar o'rtasida hamkorlik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantiradi; bolalardagi rivojlanish dinamikasini kundalik kuzatish asosida qayd etadi va bu haqda defektolog hamda psixologga muntazam axborot beradi; ota-onalar bilan samarali muloqot olib boradi.

### **Inkluziv ta'limni boshqarishning ko'p tarmoqli modeli.**

Taklif etilayotgan boshqaruv modelining markazida defektolog, psixolog va tarbiyachidan iborat multidisiplinar jamoa turadi. Ularning faoliyati maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati tomonidan boshqariladi va muvofiqlashtiriladi. Mazkur model quyidagi asosiy bosqich va mexanizmlardan iborat bo'lishi mumkin.

### **Diagnostika va monitoring bosqichi**

Birinchi bosqichda bolalar qabul qilinayotganda, shuningdek, yil davomida rejalashtirilgan muddatlarda defektolog va psixolog tomonidan kompleks diagnostika o'tkaziladi. Diagnostika natijalari asosida: bolaning umumiy rivojlanish darajasi; nutqiy, kognitiv, motorik, emotsional va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari; maxsus ehtiyojlar (agar mavjud bo'lsa) aniqlanadi.

Tarbiyachi esa kundalik faoliyatda bolalarni sistematik kuzatib boradi, kundalik qaydlar (kuzatuv daftari, rivojlanish portfeli)ni yuritadi. Ushbu ma'lumotlar defektolog va psixolog diagnostika natijalari bilan birgalikda tahlil qilinadi va boshqaruv qarorlari qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish**

Diagnostika natijalari asosida har bir maxsus ehtiyojli bola uchun, zarurat tug'ilganda esa boshqa bolalar uchun ham individual rivojlanish rejasi (IRR) tuziladi. Bu jarayonda:

defektolog – korreksion ishlar mazmuni va metodikasini;

psixolog – emotsional-irodaviy sohani qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv bo'yicha tavsiyalarni;

tarbiyachi – mashg'ulotlar va o'yinlarni rejalashtirish hamda guruhdagi o'quv-tarbiyaviy ishni moslashtirish usullarini ishlab chiqadi.

Individual reja nafaqat korreksion mashg'ulotlarni, balki kundalik ta'lim-tarbiya jarayonini ham qamrab olishi zarur. Bu hujjat ma'lum muddatda (masalan, chorak yoki yarim yillik) qayta ko'rib chiqilib, bola rivojlanish dinamikasiga qarab to'ldirib boriladi.

### **Hamkorlik uchrashuvlari va jamoaviy qarorlar**

Inkluziv ta'limni boshqarish modelida muntazam "hamkorlik uchrashuvlari" muhim o'rin tutadi. Hafta yoki oyda bir marotaba: defektolog; psixolog; tarbiyachi;

zarurat tug'ilganda metodist va ta'lim dargohi rahbari; ayrim hollarda ota-ona ishtirokida jamoaviy yig'ilish o'tkaziladi.

Unda: bolalar rivojlanishidagi o'zgarishlar; muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar; mashg'ulotlar va korreksion ishlar samaradorligi; qo'shimcha chora-tadbirlar zarurati muhokama qilinadi.

Bunday yig'ilishlar boshqaruvni faqat yuqoridan pastga buyruq asosida emas, balki jamoaviy tahlil va hamkorlik asosida, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish tizimiga aylantiradi.

### **Ota-onalar bilan tizimli hamkorlik**

Taklif etilayotgan modelda ota-onalar ham muhim subyekt sifatida qaraladi. Ularning: muntazam individual suhbatlarda ishtiroki; trening va seminarlar orqali pedagogik va psixologik

savodxonligini oshirish; uy sharoitida bajariladigan mashqlar, o'yinlar va tavsiyalarni bajarishdagi mas'uliyati alohida e'tiborda bo'ladi. Shunda defektolog, psixolog va tarbiyachining ta'lim dargohidagi ishlari uy sharoitidagi tarbiyaviy ta'sir bilan uyg'unlashib, yaxlit tizimni vujudga keltiradi.

### **Inkluziv boshqaruv modelini joriy etishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo'llari**

Inkluziv ta'limni boshqarishda samarali model ishlab chiqish bilan bir qatorda, uni amaliyotga tadbiq etish jarayonida qator muammolar yuzaga kelishi mumkin.

**Kadrlar tayyorgarligi va malaka yetishmovchiligi.** Ba'zi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida defektologlar yetarli emas, psixologlar shtati mavjud bo'lsa ham, ularning maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash tajribasi cheklangan bo'lishi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun: malaka oshirish kurslarini inkluziv ta'limga yo'naltirish; tajriba almashish seminar va vebinarlarini tashkil etish; oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

**Axborot almashish va hujjat yuritishdagi qiyinchiliklar.** Defektolog, psixolog va tarbiyachining ma'lumotlarini yagona tizimda jamlash, ularni tahlil qilish va monitoring yuritish ko'p vaqt va mehnat talab etishi mumkin. Buni yengillashtirish uchun: elektron kuzatuv kartalari; bolalar rivojlanish portfellarini raqamlashtirish; umumiy ma'lumotlar bazasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

**Jamiyatdagi stereotiplar va psixologik to'siqlar.** Inkluziv ta'limni rivojlantirishda eng katta to'siqlardan biri jamiyatda maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan shakllangan stereotiplar va noto'g'ri tasavvurlardir. Bu holat: ota-onalar;

tarbiyachilar; hatto boshqa bolalar va ularning oilalari orasida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun: targ'ibot-tashviqot ishlari; psixologik treninglar; inkluziyani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy loyihalar va ommaviy tadbirlar tizimli tashkil etilishi lozim.

**Xulosa.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inkluziv ta'limni samarali tashkil etish va boshqarish uchun defektolog, psixolog va tarbiyachidan iborat ko'p tarmoqli jamoa faoliyatiga asoslangan boshqaruv modelini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada taklif etilgan model diagnostika va monitoring, individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish, muntazam hamkorlik uchrashuvlari hamda ota-onalar bilan tizimli aloqani o'z ichiga olgan yaxlit tizimni ifodalaydi. Bu modelni hayotga tatbiq etish: maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanish dinamikasini to'liq kuzatib borish; o'quv-tarbiyaviy jarayonni individual ehtiyojlarga moslashtirish; psixologik xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va diskriminatsiyadan holi muhitni yaratish; ota-onalarning pedagogik va psixologik madaniyatini oshirish; maktabgacha ta'lim tashkilotida inkluziv madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu boshqaruv modelini turli hududiy sharoitlarda sinovdan o'tkazish, uning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali baholash va natijalarga ko'ra yanada takomillashtirish ilmiy-pedagogik izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari. – Toshkent, turli yillar.
3. Florian, L. Inclusive Practice in Education: Theory, Policy and Practice. – London: Routledge, 2014.
4. Booth, T., Ainscow, M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: CSIE, 2011.

5. Nigmatova, D. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
7. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(103), 2022. С. 30-32.
8. Xoshimova, R. Inkluziv ta'lim asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
9. UNESCO. Inclusive Early Childhood Care and Education: Guidelines for Policy and Practice. – Paris: UNESCO Publishing, 2010.
10. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// NATURALISTA CAMPANO Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.
11. Imamova Shafolat Mahmudovna. A SIMULATION TRAINER'S EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE// INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi materiallari. Inkluziv ta'lim bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2022.